



“Vatan uchun, millat uchun,
xalq uchun!”

IJODIY PARVOZ



2025-yil iyul

№ 7 (146)

dsmi.uz

nashriyot@dsmi.uz

t.me/dsmi_uz

O'ZBEKISTON
DAVLAT SAN'AT
VA MADANIYAT
INSTITUTINING
MA'NAVIY-MA'RIFIY,
ILMIY,
IJTIMOIY GAZETASI



Yil sarhisobi

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti yurtimizda aktyorlik, rejissyorlik, kinoteleoperatorlik, san'atshunoslik, folklor ijrochiligi, milliy qo'shiqchilik, xalq cholg'ulari ijrochiligi, madaniyatshunoslik, kutubxonashunoslik hamda madaniyat va san'at menejmenti ta'lim yo'nalishlarida yuqori malakali kadrlar tayyorlovchi yetakchi oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi.

O'quv yili yakunida yil davomida amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilish, yutuq va kamchiliklar haqida xulosa chiqarish keyingi yil uchun tuzilajak rejalarning puxta va mukammal bo'lishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Quyida institutda 2024/2025-o'quv yili davomida o'quv-uslubiy, ilmiy-ijodiy, xalqaro hamkorlik aloqalari, ma'naviy-ma'rifiy hamda xo'jalik faoliyati sohalarida amalga oshirilgan eng muhim ishlar aks etgan.

Ko'p jabhada ijobiy o'zgarishlar va yutuqlarni ko'rishimiz mumkin. Lekin bu natijalar bizni to'liq qanoatlantiradi, deb ayta olmaymiz.

Institut jamoasining kelgusi o'quv yili uchun rejalari ulkan. Zero, Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at rivojida ushbu darog'ning alohida o'rni bor.

Yangi yutuq – xalqaro e'tirof!

Qozog'iston Respublikasining Oqtov shahrida bo'lib o'tgan “Turkiy dunyo yosh qalamkashlari” xalqaro festivalida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Teatr san'ati ixtisosligi bo'yicha mustaqil tadqiqotchisi, Bolalar kontentini rivojlantirish markazining Loyihalar bilan ishlash bo'limi xodimi Shavkat Bobomurodov drama yo'nalishi bo'yicha mukofotlandi.

Institut jamoasi nomidan Shavkat Bobomurodovni ushbu yutuq bilan samimiy muborakbod etamiz hamda kelgusida bundanda yuksak marralarni zabt etishini tilab qolamiz.



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti “Kino, televideniye va radio rejissyorligi” kafedrası Rejissyorlik (kino va televideniye rejissyorligi) yo'nalishi 1-bosqich talabasi Axadjon Oxunov tomonidan suratga olingan “Kloun” nomli qisqa metrajli film Rossiyaning Moskva shahrida bo'lib o'tadigan II Xalqaro “Antares” kinofestivalining asosiy tanlov dasturiga kiritildi!

Tanlov dasturiga 29 mamlakatdan saralab olingan filmlar qatorida Axadjon Oxunovning asari ham munosib o'rin egalladi. Bu yutuq nafaqat yosh rejissyorning ijodiy salohiyatini, balki institutimizda berilayotgan ta'limning sifati va samaradorligini ham yana bir bor namoyon etadi.

Iqtidorli talabani ushbu muhim bosqich bilan chin qalbdan tabriklaymiz va keyingi bosqichda ham omad tilaymiz!

“DOLZARB 90 KUN”

LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINING O'RNI

“Dolzarb 90 kun” loyihasining asosiy maqsad va vazifalari madaniyat va san'at muassasalari faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. Loyihaning madaniy-ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyati, yoshlar ongida san'at

va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini shakllantirishda madaniyat va san'at muassasalarining faol ishtirokini guvohi bo'lib turibmiz.

Davomi 4-betda ➡

Davomi 5-betda ➡

MA'RIFAT ULASHUVCHILAR

Bugungi sonda: Jadidlar qizlar ham ta'lim olishga haqli ekanini quyidagi jumlalar orqali ifodalaganlar: “O'g'il farzand o'qitsang, bitta odam ilmi bo'ladi, bitta qiz farzand ta'lim olsa, butun oila ziyoli bo'ladi, o'qimishli onadan tarbiya olgan farzand oqil bo'ladi. Onalar bilimli ekan, jamiyat ham bilimli bo'ladi”. 2

MUHAMMAD YUSUF – vatan kuychisi

Ba'zan katta-katta mablag'lar sarflab ham odamlarga Vatanni sevdirib bo'lmaydi. Shoir esa, oddiygina so'zlar bilan vatanimiz ulug'ligini qalblarga joyladi. “Rimni alishmasman bedapoyangga”, degan shu bittagina misrasi bilan o'zbek xalqining qaddini qanchalik ko'tarib qo'ydi. 3

KO'Z YOSHLARGA g'arq qilgan asar...


Mazkur asar 1994-yilda Zhang Yimou tomonidan kinoga olingan. Film g'oyatda muvaffaqiyatli bo'ldi. Xitoyda roman chop etilganidan so'ng, zamonaviy adabiyot durdonasi sifatida e'tirof etilgan. 5

BIBIXONIMNI taniysizmi?

AQShning Sietl san'at muzeyida saqlanayotgan miniatyurada Saroymulxonimning Samarqanddan Shohruh ibn Temur va Xalil Sulton ibn Mironshoh bilan Eron shimoli-g'arbidagi Temur qarorgohiga qilgan sayohati tasvirlanganligi ma'lum bo'ldi. 6



Ma'rifat ulashuvchilar



Durdona TEMIRQULOVA,
“San’at jurnalistikasi”
ta’lim yo’nalishi
2-bosqich talabasi

Jadidlar o’zi kimlar? San’at olamiga ayniqsa, teatrqa qanday bog’likligi bor? Jadid – bu arabcha “yangi” degan ma’noni anglatadi. Jadidchilik harakatining asosiy g’oyasi ozodlik va xalqni bilimli qilish edi. Dastlab, jadidlar o’zini taraqqiyparvarlar deb atashgan. Ular ilgari surgan asosiy g’oya mustaqil davlat qurish edi. Jadidlar ilk harakatni yangi usul maktablarini ochishdan va ta’lim olishlari uchun kitoblar chop etishdan so’ngra ilm olishga layoqatli, savod chiqargan yoshlarni chet elda o’qishini davom ettirishlari uchun ham harakat qilganlar. Yangi usul maktablari asoschilari M.Behbudiy, Munavvarqori, Abdulvohid Burhonov, Abdulla Avloniy kabilar hisoblanadi.

Tarixiy manbalarga qaraganda, yangi usul maktablarida o’g’il bolalar safida qizlar ham ta’lim olgan va maktablar bu g’oyaga qarshi aholi tomonidan tosh-bo’ron qilingan. Jadidlar qizlar ham ta’lim olishga haqli ekanini quyidagi jumlar orqali ifodalaganlar: **“O’g’il farzand o’qitsang, bitta odam ilmi bo’ladi, bitta qiz farzand ta’lim olsa, butun oila ziyoli bo’ladi, o’qimishli onadan tarbiya olgan farzand oqil bo’ladi. Onalar bilimli ekan, jamiyat ham bilimli bo’ladi”**. Jadidlarning tashabbusi bilan ushbu g’oya ilgari surildi va qizlarni ta’lim olishlariga e’tibor qaratila boshladi. Maktablar taraqqiyparvarlar tomonidan gullab yashnadi, dastlab qarshilik bildirgan kishilar spektakl tomosha qilgandan keyin, o’zlari farzandlarini ilm dargohiga olib kela boshladilar. Teatr yuzaga kelishiga jadidlar asos solganlar.

Gazetalarni turkiy tilda bo’lishiga qaramay, o’qiy olmaydigan ilmsiz aholi astalik bilan har sonini kutadigan bo’ldilar, gazeta talab kuchaydi. So’ng Turkistonga jurnal kirib keldi. “Oyina” nomi bilan atalgan jurnal asoschisi esa, jadidchilik harakatining yirik namoyondalaridan biri M.Behbudiydir. Ammo bu davrda bilim berishning, ta’lim olishning o’zi kamlik qildi. Chor hukumatini qo’llab-quvatlovchilar yetarli bo’lgani sababli, jadidlar harakati faqat maktablar va kitob, gazetalar bilan cheklanmasligi kerakligi maqsadida yangi bir olamni Turkistonga nomayon qildilar.

Jadidlar harakatining keyingi bosqichi, teatrning vujudga kelishi. Ilk spektakl va uning aholiga ta’siri keskin burilishni yuzaga keltirdi. Jahon teatlari tarixiga nazar tashlasak, Yunononistonda paydo bo’lgan teatr aholi vaqtini qiziqarli o’tkazish uchun, ko’ngil ochar joy sifatida qaralgan, O’rta Osiyo mamlakatlari tarixida, Temuriylar davrida ham xuddi shunday turda ko’ngil ochar spektakllar an’anaviy teatrlar mavjud bo’lgan. Jadidlar tashkil etgan truppalar, teatlarda sahnalashtirilgan spektakllar yevropa tipida bo’lgan va pyesalar xalqning ko’zini ochish hamda ibrat sifatida ko’rsatishga xizmat qilgan. Zero, “Teatr – bu ibratxona”, deb bejizga aytilmagan.

Ilk sahnada qo’yilgan spektakl M.Behbudiyning “Padarkush” dramasi. Ushbu asar dastlab Samarqandda Ali Asqar (Ozarbayjon rejissyori) tomonidan sahnalashtirilgan, 1914-yil 15-fevralda ommaga taqdim etilgan. Toshkentda esa, A.Avloniy tomonidan Turon teatr truppasida 1914-yil 27-fevralda spektakl qo’yilgan. Asar voqealariga to’xtalish spektaklni ko’rishga bo’lgan ishtiyoqni oshiradi. Bugungi kunda ham dolzarb muammolardan biri bu bilimsizlik va yoshlarni o’qishga bo’lgan layoqatsizligidir. Spektalkda boy va uning ilm olishga bo’lgan qarashlari o’z hayotiga nuqta yasash shartnomasiga imzoligini belgilab beradi. Spektaklni tomosha qilar ekanmiz, voqealar ziyoli bo’lishga targ’ib qiladi... Spektakl yaxshi qabul qilindi va ushbu sahna asaridan so’ng “Baxtsiz kuyov” asari ham ijro qilindi. Ammo Behbudiyning Padarkush dramasi “Ilk teatr asari”, sifatida o’chmas iz qoldi.

Behbudiy faoliyati jarayonida ko’rsatgan tashabbuskorlik ishlari hozirgacha ilm ahlini ruhlantiradi. Behbudiyning asl ismi-sharifi Mahmudxo’ja Behbudiy ibn Behbudxo’ja bo’lib, u 1875-yil, 20-yanvarda Samarqandda tavvalud topgan. Behbudiyning 1913-yilda asos solgan “Samarqand” gazetasi o’zbek va tojik tillarida, haftada ikki marotaba chop etilgan. Gazeta 45-sonidan so’ng chor hukumati tomonidan chop etish to’xtatiladi. Gazetadan so’ng Behbudiy ziyolilar uchun yana bir yirik ishga qo’l uradi. Bu esa, “Oyina” jurnali bo’lib, 1913-yil 20-avgustdan chop etila boshlagan. “Oyina” jurnalida millatning tarixi, adabiyot va til, haq-huquqi, jahondagi jarayonlar borasida maqola va mu-nozaralar nashr etib ommaga taqdim etib borilgan. Behbudiyning bundan tashqari “Ehtiyoji millat”, “Bayoni haqiqat”, “Yoshlarga murojaat”, “Ikki emas, to’rt til lozim” kabi asarlari hozirgacha yetib kelgan va gazeta, jurnallarda kitobxonlarga asar durdonalari sifatida taqdim etilmoqda.

Behbudiy bilan birgalikda yashab, jadid nomini olgan dramaturglar sirasiga kiruvchi Muhammadquli O’rinboyev hamda Mardonquli Shomuhamedovlardir. Ularning maqsadi, qilayotgan harakatlari, ma’naviyatni yuksaltirib, xalqni ko’zini ochgani va xalq ularga ergasha boshlagani hukumatga yoqmadi. Shu bois, barchalarini xalq dushmani deb surgun qilishdi, bedarak yo’qolganlari ham yo’q emas.

Mustaqillikka erishganimizdan so’ng, jadidlar nomi oqlandi. Ular xotirasiga bag’ishlab filmlar olindi, uy muzeylari tashkil etildi, ularning nomi ko’cha va mahallalarga berildi. Jadidlar haqida maqolalar chop etildi, kitoblar yozildi, ilmiy ishlar qilindi, ularning haykallari bog’larda qad rosladi. Ilm-ma’rifatparvarlik yo’lida jon bergan ota-bobomalarimiz tarix zarvaraqlarida oltin yozuvlar bilan o’chmas iz qoldirganlar. Biz yoshlar, bizgacha yetib kelgan ularning xotirasini mustahkamlab, o’rganilmagan tadqiqotlarni amalga oshirib, o’zimizdan keyingi avlodga ham manbalarni yetkazishimiz natijasida jadidlarning mehnati zoya ketmaganlini ifodalaydi.

Behbudiy ibratlari

“Agarda muhtaram noshir va kitobchilarimiz mundan so’ng axloq buzguvchi oshiqona g’azallar va sof e’tiqodlarni zaharlantiruvchi xurofotlik afsona kitoblar o’rnig’a mo’tabar tarixiy, axloqiy va adabiy risola va kitoblar nashr etmoqg’a tashabbus etsalar, shoyad bu xayrli ishlari avvalgi gunohlarining yuzini yopar”.

“Oyina” jurnali, 1914-yil

“To’y va ta’ziyag’a sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo’lig’a sarf etsak, anqarib ovropoyilardek taraqqiy etarmiz va o’zimiz-da, dinimiz-da obro’y va rivoj topar. Yo’q, hozirgi holimizg’a davom etsak, din va dunyog’a zillat va miskinatdan boshqa nasibamiz bo’lmaydur”.

“Oyina” jurnali, 1915-yil

“Makotib – taraqqiyning boshlang’ichi, madaniyat va saodatning darvozasidir. Har millat eng avval makotibi ibtidoiysini zamoncha isloh etib ko’payturmaguncha taraqqiy yo’lig’a kirub madaniyatdan foydalanmas. Madaniyati hoziradan mahrum qolub, sanoye’ va maorif salohi ila qurollanmagan millat esa, dunyoda rohat va saodat yuzini ko’rolmas”.

“Ushbu tamaddun asrida ilmsiz quruq taassub ila ham yashab bo’lmas. Chunki zamonamiz shunday zo’rki, ozgina fursatda churuk taassubotimizni asosidan qo’parub tashlaydur. Shuning uchun zamonaning muhlik asbobig’a qarshu muqovamat etadurgon bir narsa bor bo’lsa, ul-da maorifdur”.

“Muhtaram yoshlarga murojaat” maqolasi,

“Oyina” jurnali, 1914-yil

“Muhammad Yusuf xalqimiz sevgan samimiy shoir, vatanparvar inson edi. Sizlar uning munosib davomchilari bo‘lishingiz kerak”.

Sh.MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentini

Muhammad Yusuf – vatan kuychisi



Haqiqiy shoirning tug‘ilishi ham aslida bahorning tug‘ilishi yanglig‘ ko‘klam osmonidagi chaqinlarning dunyoga kelishi misol – bir ilohiy, bir samoviy hodisadirki, bu holatning sir-sinoati bilan mazmun-mohiyati Yaratganning o‘zigagina ma’lum. Har kim o‘zidan yaxshi nom qoldirishini istaydi, lekin bunga hamma ham sazovor bo‘lavermaydi. Yurtimizda shoir-lar ko‘p. Har qanday vaziyatda ham ijod qilishdan to‘xtamaydiganlari ham talaygina. Shunday haqiqiy shoirlardan biri O‘zbekiston xalq shoiri, jamoat arbobi, o‘zining sodda va xalqchil she‘rlari bilan xalqimiz qalbidan chuqur joy olgan shoir Muhammad Yusufdir.

Muhammad Yusuf haqida gap ketganda kimdir erka shoir, yana kimdir muhabbat kuychisi edi, deb ta’rif beradi. Shoir Muhammad Yusuf o‘zidan yaxshi nom qoldirishi bilan birga, kelajak avlod uchun she‘rlari bitilgan bebaho xazina qoldirdi. Yurtimizning keksa-yu yoshlari ichida uning she‘rlarini yoddan biluvchilar juda ko‘plab topiladi. Ayniqsa, Muhammad Yusuf qalamiga mansub “Ulug‘imsan, vatanim” she‘ri xalqimiz uchun qadrlidir. Undagi har bir so‘z xalqimizga xos bo‘lgan xususiyatlarni o‘zida jam etgan. Bastakorlarimiz she‘rni musiqaga jo aylab, qo‘shiq qilgan va bu qo‘shiqni eshitganimizda, vatan tuyg‘usi yanada kuchayadi. Muhammad Yusufning har bir she‘rida milliy ruh, xalqona falsafa, boy va betakror tilimiz jilolari, o‘zbek xalqining yuksak insoniy fazilatlarini mujassamligi bilan birga, yoshlik sururi, ishq hamda muhabbatning nafis navolari yuksak darajada ifodasini topgan.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumanida tavallud topgan. Bolaligidan she‘riyatga qiziqib, maktab davridayoq o‘zining ilk ijodiy qadamlarini qo‘yadi. U Toshkent davlat universitetining filologiya fakultetida tahsil olgan. Universitetni tamomlaganidan so‘ng turli tahririyatlar va nashriyotlarda faoliyat yuritib, o‘zining adabiy iste‘dodini rivojlantirdi.

Muhammad Yusufning she‘rlari xalqning ruhiy holatini aks ettirishda katta ahamiyatga ega. Uning ijodida vatan, ona zamin, sevgi va insoniy qadriyatlar markaziy o‘rin egallaydi. “Ishq kemasi”, “Tilsim”, “Uyqudagi qiz”, “Bulut bo‘lsam” kabi to‘plamlari milliy adabiyotning bebaho durdonalaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov ta’biri bilan aytganda: **“Muhammad Yusuf qo‘shiqlari bilan emas, avvalo, xalq dardini baralla aytgan, yurt muhabbatini hech kimga o‘xshamagan misralarda ta’riflagan she‘rlari bilan tanildi, shuhrat qozondi. Odamlar uning kitoblarini do‘konlardan qidirib yuradigan bo‘ldilar... Shoirning umri uning she‘rlarida davom etmoqda”. “Chinakam shoirning qalbida allaqanday sohir qush doimo sayrab turadi”, degan gapni ko‘p bora eshitganman. O‘sha qush aynan Muhammadjonning, Muhammad Yusufning yuragida oshyon qurganiga men astoydil ishonganman. Uning ko‘zlari ham, chehrasi ham hamisha latif bir kuyini xonish qilganday edi... Darhaqiqat, u**

o‘z elini, xalqi, vatanini chin farzandday, beg‘araz, sidqidildan yaxshi ko‘rar edi. Shu mehrning natijasi o‘laroq, uning she‘riyatini ham xuddi shundoq beminnat va beg‘araz she‘riyat sifatida maydonga keldi. Va bu oqko‘ngil, osmonqalb ukamizdan xuddi shunday she‘riyat yodgor qoldi”, – degan edi O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.

Ba’zan katta-katta mablag‘lar sarflab ham odamlarga Vatanni sevdirib bo‘lmaydi. Shoir esa, oddiygina so‘zlar bilan vatanimiz ulug‘ligini qalblarga joyladi. “Rimni alishmasman bedapoyangga”, degan shu bittagina misrasi bilan o‘zbek xalqining qaddini qanchalik ko‘tarib qo‘ydi. Qarang, bitta bedapoyani ham Rimga bermayman, deyapti. Yana boshqa bir misrada esa,

“Parijning eng mashhur restoranlarin, Bitta tandiringga alishmasman men”, deydi. Darhaqiqat, shoir she‘rlarida nafaqat o‘zining, balki o‘zbek xalqining yurak urishi eshitiladi, u o‘zbek dunyosini anglashga o‘rgatadi...

Muhammad Yusufning orzumand ko‘ngli, alamzada yuragi, daryo qalbi epik asarlarida, ayniqsa, “Qora quyosh” dostonida ifodasini topgan. Jadid bobolarimizning boshiga tushgan ko‘rgiliklar, iste‘dod evaziga istibdod zahrini totishga majbur bo‘lgan buyuk bobolarimiz tarixiy dalillar asosida xotirlanadi.

Muhammad Yusufning ijodi haqida so‘z borar ekan, uning qator she‘rlari qo‘shiqqa aylanganiga guvohmiz. Shoirning she‘rlari nihoyatda dolzarb mavzuda o‘ta jiddiy, ammo xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Shuning uchun bo‘lsa kerak, ushbu qo‘shiqlar qo‘shiqchilikni baland pog‘onalarga olib chiqdi va qancha-qancha xonandalarni elga tanitdi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev 2017-yil 3-avgustda bir guruh yozuvchi, shoir va ziyolilar bilan o‘tkazgan uchrashuvda, milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilayotgan e’tibor, galdagi muhim vazifalar haqida gapirib: **“Adabiyot xalqning yuragi, elning ma’naviyatini ko‘rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo‘l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta’sirchan kuchidan foydalanish kerak”** – degan edilar. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti jamoasiga shoir Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatini keng targ‘ib qilish vazifasi yuklatilgan edi.



**Charos G‘AYBULLOYEVA,
Madaniyat va san’at
massasalarini tashkil
etish hamda boshqarish ta’lim
yo‘nalishi 3-bosqich talabasi**

O‘zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusufning ibratli hayoti va ijodini chuqur o‘rganish bo‘yicha institutda o‘quv-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish, ilmiy-ijodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha tizimli ishlar rejasi tuzildi. Institutning barcha kurs va guruhlarida Muhammad Yusuf hayoti va ijodiy faoliyatiga bag‘ishlangan maxsus kurslar o‘qitilishi belgilab olindi. Bu maxsus kurslarni o‘qitishdan maqsad, shoirning hayoti va ijodini o‘rgatishdangina iborat bo‘lmasligi kerak. Kamida, vatanni Muhammad Yusufdek “iddaolar qilmay” se-vishni o‘rgatishdan, ona tilimizni Muhammad Yusufdek gard yuqtirmay ardoqlashni, beqiyos milliy qadriyatlarimizni uningdek anglashni o‘rgatishdan iborat bo‘lishiga erishmog‘imiz lozim.

1998-yili Muhammad Yusufga “O‘zbekiston xalq shoiri” degan yuksak unvon berildi. Shoir 2001-yilning 1-avgust kuni 47 yoshida olamdan o‘tdi. Negadir uni qabristonga kuzatib borganlar xuddi ular nomidan so‘zlovchi, rohat va azoblari kechinmalarini topib ay-tuvchi hamdardlarini tuproqqa qo‘yayotgandek ayriliqni tuyganlari haqida hali hamon eslaydilar.

Bugungi kunda shoirning xotirasini abadiylashtirish maqsadida Adiblar xiyobonida Muhammad Yusuf haykali qad roslagan. Hattoki, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutida ham Muhammad Yusuf nomidagi institut stipendiyasi ta’sis etilishi, har bir fakultetda o‘zbek adiblari yaratgan asarlarni sahna-lashtiruvchi teatr truppalari tuzilishi yoshlarning badiiy didi, salohiyati, bilim va iqtidorini yuksaltirib qolmay, ularni rag‘batlantirishga ham xizmat qiladi. Muhammad Yusufning vatanparvarlik mavzusidagi she‘rlarida alohida qayd etib o‘tish lozim bo‘lgan jihat borki, unda albatta biror bir ajdodimiz tilga olinadi va madh etiladi. Bu borada, o‘zbek xalqining buyuk mutafakkir va alommalari, yengilmas sarkardalari, ma’rifatparvarlari, ijodkorlarining qismati, faoliyati, amalga oshirgan buyuk ishlariga voris sifatida ijodiy munosabati orqali ajdodlarga munosib avlod bo‘lish g‘oyasini ilgari suradi. Muhammad Yusuf o‘zbek elining sevimli va ardoqli shoirlaridan biri. Uning she‘rlari o‘zining zamonaviyligi, sho‘xchanligidan tashqari, mahzunligi va xotira lirik kechinmalarga boyligi bilan ajralib turadi.

Muhammad Yusufning she‘riyatini o‘zbek madaniyati va adabiyotining yorqin namunasi hisoblanadi. Shoir asarlarining xalq qalbida abadiy yashashi uning ijodining nechog‘lik buyuk va chuqur ekanligidan dalolatdir. Uning ijodi vatan va xalq manfaatini uchun yashash, insoniylikni ulug‘lash kabi oliy qadriyatlarni avlodlarga yetkazishda muhim rol o‘ynaydi. Umuman olganda, Muhammad Yusufning ijodi milliy adabiyotimizga xizmat qildi, yangi davrda uning ravnaqiga o‘z hissasini qo‘shdi. Uni haqli ravishda uchinchi renessansning birinchi shoiri, deb atash mumkin. Zero, Muhammad Yusufning she‘rlari qalbimizda mangu yashaydi va uning shogirdlari safi yanada kengayib boraveradi...



“DOLZARB 90 KUN”

LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARINING O'RNI

Prezidentimiz tashabbusi bilan yo'lga qo'yilgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi 2025-yil 1-iyundan 30-avgustga qadar yoshlarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, yozgi ta'tilni maroqli o'tkazishga qaratilgan bo'lib, ta'lim, ijod, sport va sog'lom turmush tarzini targ'ib qiladi. Shuningdek, ta'lim tashkilotlari o'rtasida yoz oylarida samarali hamkorlikni yo'lga qo'yish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Ushbu loyiha yurtimizda madaniy-ma'rifiy muhitni yanada kengaytirish va yoshlarni o'z iste'dod, iqtidorlari va qiziqishlariga qarab, turli xil yo'nalishdagi sohalarda tashkil etilgan tanlov, tadbir, to'garak va kurslarga jalb qilish orqali ma'nan va jismonan sog'lom avlodni shakllantirishga yo'naltirilgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev doimiy ravishda yoshlarning salomatligi va ularning ma'naviy kamoloti haqida ta'kidlab, “Yangi O'zbekistonni barpo etish – har tomonlama sog'lom, bilimli, tashabbuskor yoshlar bilan bog'liq”, – degan edi.

“Dolzarb 90 kun” loyihasi ham yuqoridagi fikrlarni ijobati desak, mubolag'a bo'lmaydi. Loyiha doirasida, o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va rivojlantirish uchun turli xil o'quv-uslubiy tadbirlar tashkil etish, yoshlarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun turli tanlovlar, ko'rgazmalar va ijodiy uchrashuvlar o'tkazish, yoshlar o'rtasida sport bilan shug'ullanishni ommalashtirish uchun

sport musobaqalari, turnirlar va boshqa sport tadbirlarini tashkil etish, yoshlarga sog'lom turmush tarzining ahamiyati to'g'risida tushunchalar beriladi. Tartibli ovqatlanish, jismoniy faollik va salbiy odatlardan saqlanish bo'yicha targ'ibot ishlarini olib boorish, har bir tuman, shaharlarda madaniy tadbirlar, teatr tomoshalari, konsertlar va boshqa ma'rifiy tadbirlar tashkil etish relashtirilgan. Shunday ekan, “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasidagi tadbir, tanlovlarni tashkil etish va o'tkazishda madaniyat va san'at muassasalarining o'rni beqiyos.

“Dolzarb 90 kun” tadbirlari doirasida 2025-yil iyun-avgust oylarida mas'ul vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, unga muvofiq bir qancha tadbir va tanlovlar amalga oshirilmoqda. Men yurtimiz bo'ylab davom etayotgan “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasidagi tadbir va tanlovlarida faol ishtirok etib kelmoqdaman. Bu loyiha biz yoshlar uchun o'z qiziqishlarimizni namoyon qilish, balki ijodiy fikr va tashabbuslarimizni jamiyatga taqdim etish uchun katta imkoniyat bo'ldi. Dolzarb 90 kun loyihasi doirasida tadbir va tanlovlarni tashkil etish bo'yicha O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti jonbozlik ko'rsatmoqda, desam mubolag'a bo'lmaydi.

Yozgi ta'til davrida, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish borasida

ishlab chiqilgan va tasdiqlangan chora-tadbirlar dasturi va kunlik grafiklarga muvofiq, institut hududidagi sport maydonlari, turli xil to'garaklar to'liq ish rejimida ochiq bo'lishi belgilangan. Undan tashqari, dasturga muvofiq, adabiyot va she'riyat kechalari, zakovat intellektual o'yinlari, teatr kunlari, “Bir haftada – bir kitob”, “Kitobxon yosh – 2025” loyihalari, turli xil sport musobaqalari o'tkazilmoqda. Talabalar o'z uylarida, yozgi ta'til davrida bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishlari uchun turli xil onlayn ko'rik tanlovlar e'lon qilingan. Jumladan, “Mening madaniyat markazim” mavzusida videoroliklar tanlovi va “Mening O'zbekistonim” shiori ostida “Vatan bo'ylab sayohat qil” kreativ loyihasi kabilar misol bo'la oladi. Bu tanlovda talaba yoshlar o'z hududida joylashgan, faoliyat ko'rsatayotgan madaniyat markazlariga tashrif buyurishlari va u yerdagi ijodiy faoliyatdan videoroliklar tayyorlash orqali bu tanlovda ishtirok etishlari mumkin. Ushbu tanlov orqali talabalar o'z hududidagi madaniy hayotni o'rganadilar, madaniyat markazlarida tashkil etilgan to'garaklar faoliyati bilan yaqindan tanishib, ularni targ'ib qilishga, rivojlantirishga hissa qo'shadilar.

“Vatan bo'ylab sayohat qil” kreativ loyihasida talabalar vaqtdan unumli foydalanган holda muzey, madaniy meros va turizm obyektlariga tashrif buyurib, o'zlari ishtirokida rasmlar kolleksiyasini yaratishlari lozim. Bu loyiha yurtimizda turizm sohasini targ'ib qilish va rivojlantirishga xizmat qiladi. Undan tashqari, milliy madaniyatimizni anglash biz yoshlarda faxr va mas'uliyat tuyg'usini yanada kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash, ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarini o'zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish, xalq ijodiyoti va badiiy havaskorlik san'atini saqlab qolish va rivojlantirish, turli



Naima BOYQOBILOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menjementi mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

to'garaklar, studiyalar, kurslar, qiziquvchilar klublari, badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish va ularning faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish kabi maqsadlarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yan.

Yurtimizdagi 837 ta madaniyat markazlari ham “Dolzarb 90 kun” loyihasining faol tashkilotchisi va targ'ibotchisi. So'zinning isboti sifatida quyidagilarni ayta olamanki, Yunusobod tuman Madaniyat bo'limi tasarrufidagi madaniyat markazlari nafaqat devorlarda, balki qalblarda jonlanmoqda. Har bir markaz – bir olam. U yerda ashula bor, raqs bor, badiiy so'z bor, an'anaviy hunar o'rgatuvchi ustalar bor. Xullas, har bir markazda hayot jo'shmoqda! Madaniyat markazlariga yoshlar o'zlarini qiziqishiga mos to'garak va kurslarni topyaptilar. Ular bu yerda faqat bilim, hunar emas, hayot saboqlarini ham olmoqdalar.

“Mahalla – markaz – maktab” tizimida tumanda joylashgan maktab, mahallalar bilan hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Maktablarda tashkil qilingan yozgi oromgohlardagi bolajonlar uchun madaniyat markazlarining o'z sohasini sevgan to'garak rahbarlari tomonidan “Mahorat darslari” har hafta tashkil etilmoqda. Har bir mahorat darsi – bir ilhom manbai. To'garak rahbarlari esa, bu jarayonning bosh qahramonlaridir. Ular yosh qalblarni san'atga oshno qilmoqda, ma'naviyatga yetaklamoqda. Har bir mehrli nigoh, har bir sabr bilan o'rgatilgan harakat – bu vatan er-tasi uchun qo'shilgan bebaho hissa bo'la oladi.

Tuman madaniyat bo'limi tasarrufidagi madaniyat markazlarida bo'lib, “Dolzarb 90 kun” loyihasi doirasida “Madaniyat markaziga kelgan har bir bola – VIP mehmon” bosh g'oyasi asosida mahallalar bilan hamkorlikda haftada bir kun ochiq eshiklar kuni o'tkazilmoqda. Bolalar markazlardagi to'garaklar ochiq eshiklar kunida bevosita ishtirok etib, xalq va namunali unvonga ega badiiy havaskorlik jamoalari tomonidan ko'ngilochar konsert dasturi taqdim etilmoqda. Bugun har bir ta'lim muassasasi, har bir maktab, har bir madaniyat markazi – bu ijod bo'stoni, yosh iste'dodlarning parvozigina qanot bo'layotgan makondir. Zero, jamiyatni yuksaltirish uchun nafaqat iqte'dod, balki ruh ham yuksak bo'lishi kerak. Ruhni esa, madaniyat va san'at tarbiyalaydi. Bugun madaniyat va san'at muassasalari bu vazifani sharaf bilan bajarmoqda.

Ibrat

Nahotki sen yo'qotishlar faqat moddiy bo'ladi, deb o'ylaysan? Yo'q, undan ham yomonroq yo'qotishlar bor — ma'naviy yo'qotishlar. Sof niyatlar, ezgu istaklar va yaxshi xulq-atvor ham yo'qoladi. Bularning barchasini yo'qotgan odamlarning ahvoli doimo tang bo'ladi.

EPIKTET,
Rim faylasufi

SURXONDARYODA MADANIYAT VA SAN'AT TARAQQIYOTI

◀ Boshlanishi 1- betda

Madaniyat va san'at muassasalarini xususiy sektorga o'tkazish jarayonining afzalliklari shundaki, xususiy sektorda innovatsion yondashuv, yangi kreativ g'oya va metodlarni qo'llash imkonini beradi. Mazkur islohotlar haqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev: *"O'tgan yili 15 ta madaniyat markazi xususiy sektorga berildi. Tadbirkorlar 86 milliard so'm investitsiya kiritib, 1,5 mingdan ziyod madaniy tadbir tashkil qildi"*, – deya ta'kidlab o'tgan edi.

Davlatimiz rahbari tomonidan, madaniyat va san'at sohasini yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha bir qancha ijobiy ishlar qilindi. Barcha hududlar singari Surxondaryo viloyatida ham madaniyat va san'at sohasida, qisqa fursat ichida olamshumul islohotlar amalga oshirildi.

Davlatimiz rahbari: *"Endi, ko'nglimdagi bitta gapni aytsam. Agar yana bir-ikki yil birgalikda qattiq ishlasak, Surxondaryoda juda katta rivojlanish, o'sish bo'ladi"* – deya, aholiga katta ishonch bildirib, ruhlantirgan edi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning "Surxondaryo viloyatida madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2024-yil 26-apreldagi 240-sonli qarori qabul qilindi. Qisqa vaqt ichida qaror ijrosi yuzasidan Surxondaryo viloyati hokimligi tomonidan 15 ta namunaviy madaniyat markazlarida ta'mirlash ishlari olib borilgan. Bugun viloyatdagi madaniyat markazlaridagi jami to'garak, studiya va badiiy havaskorlik jamoalari soni 463 ta, ishtirokchilar soni 4993 nafarni tashkil etmoqda. Mazkur madaniyat markazlari qoshida 60 ta "Xalq havaskorlik jamoasi" va "Namunali bolalar jamoasi" unvonga ega havaskorlik jamoalari hamda folklor-etnografik, ashula va raqs ansambllari (19 ta ashula va raqs ansambli, 26 ta folklor-etnografik jamoasi, 9 ta havaskorlik teatri, 4 ta dorbozlik gu-

ruhlari va 1 ta maqom hamda 1 ta cholg'u ansambllari) faoliyat ko'rsatib, ulardagi qatnashchilar 1016 nafarni tashkil etadi. Mazkur jamoalarning barchasi shtat birliklari bilan ta'minlangan. 5 ta muhim tashabbus doirasida viloyat yoshlari o'rtasida kitobxonlik an'anasini yanada jonlantirish, kitob mutolaasiga keng e'tibor qaratish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar diqqatga sazovordir. Har bir tuman markazlarida kitob do'konlari, kutubxonalar ochildi va yangi asarlar bilan boyitilib kelinmoqda.

Bugungi kunda aholining kitobxonlik madaniyatini yanada oshirish bo'yicha bolalar va kattalar uchun boshqarma tasarrufidagi 15 ta madaniyat markazlarida 26553 ta kitob fondiga ega bo'lgan kutubxonalar faoliyat yuritmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2024-yil 2-maydagi 240-sonli buyrug'iga asosan, joriy yilning oxiriga qadar qo'shimcha 7 ta madaniyat markazlarida yangidan kutubxonalar tashkil etish hamda ularni adabiyotlar bilan ta'minlash yuzasidan tegishli tashkiliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirining 2024-yil 27-fevraldagi "Milliy qadriyatlar oyligi" tadbirlar va xalq sayllarini o'tkazish to'g'risidagi 104-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida, Surxondaryo viloyati madaniyat boshqarmasining 2024-yil 5-martdagi 11-sonli buyrug'i ishlab chiqilgan. Mazkur vazifalar ijrosini taminlash maqsadida, joriy yilning mart oyida Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlarida, viloyat madaniyat muassasalarida "Milliy qadriyatlar oyligi" munosabati bilan turli tadbirlar va xalq sayllari o'tkazildi. "Baxshichilik" yo'nalishi bo'yicha madaniyat markazlarida 4 ta to'garak hamda bolalar musiqa va san'at maktablarida 19 ta sinflar tashkil etilgan. Mazkur to'garak va sinflarda 16 nafar xalq unvoni,

orden va medallar sohibi bo'lgan baxshilar saboq bermoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "Nomoddiy madaniy merosini muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosini viloyatda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish maqsadida Surxondaryo viloyati madaniyat boshqarmasining 2024-yil 29-yanvardagi "Viloyatda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi buyrug'i va viloyatda nomoddiy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni yanada kengroq qo'llab-quvvatlash 2024-yil fevraldagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida bo'lgan nomoddiy madaniy meros namunalarini saqlovchi va keyingi avlodga yetkazish bilan shug'ullanadigan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy tadqiqot institutiga taqdim etilgan. Shuning uchun ham, o'sib kelayotgan avlodning ongi va tafakkurini salbiy illatlardan himoya qilish ma'nosida ularda ma'naviy immunitetni hosil qilish, yoshlarning ongiga ajdodlarimizdan meros bo'lib qolgan azaliy qadriyatlar – ezgulik, odamiylik, bag'rikenglik, mehr-muhabbat, vatanparvarlik, yurtga sadoqat ruhini singdirishda madaniyat va san'at sohasining o'rni beqiyosdir. Bu kabi islohatlar bejiz emas. Aynan Vatanimiz tarixini, ayniqsa, uning madaniyati va san'atini chuqur anglash orqali, o'sib kelayotgan avlod nafaqat shonli o'tmishimizni, balki Yangi O'zbekiston istiqbolining mohiyatini yanada teran tushunib yetadi.

Ijodiy, madaniy-ma'rifiy faoliyat, boy madaniy merosimiz asrlar davomida xalqimizning ma'naviy timsoli sifatida hami-



Baxtiyor SAMIYEV,
"Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi,
"Islom Karimov nomli davlat stipendiyasi" sohibi

sha jahon ahlining e'tiborini tortib kelishiga ishonaman. Amalga oshirilayotgan islohotlarni xalqimizga yanada targ'ib qilishda esa, mukammal ta'mirlangan va jihozlangan, shi-nam va ko'rkam madaniyat va san'at muassasalari ham o'z ijodiy ishlari bilan xizmat qilaveradi. Sababi, mazkur muassasalarda yaratib berilayotgan imkoniyatlar va ijodiy salohiyat kundan-kunga ortib boraveradi.

Ushbu asarni qo'lga olar ekanmiz, shunday so'zlar bilan ogohlantiriladi: "Yuraklari zaiflarga o'qish tavsiya etilmaydi". "O'g'limni tuproqqa topshirishim kerak edi, ammo undan ajralish menga nihoyatda og'ir edi. Ota-onamning qabri oldida tiz cho'kib, bolamni yerga qo'yishga yuragim chidamasdi. Asta yelkamga suyanib qoldi, yuzlari sovuq va qotib qolgan edi, xuddi muz bo'lagini yelkamda turgandek his qilardim... Shamol kechga yaqin barglarni uchirar, o'g'limning tanasi qirovdan nam tortgan edi. Hali-hamon, ertalab maktabga otlanayotgani xotiramda. U yugurib ketayotganida, yelkasidagi sumkasi yuqoriga-pastga sakrar edi. Yig'lashdan ko'zlarim yoshga to'ymasdi. Kechki shamol barglarni to'zg'itar, o'g'limning tanasi qirovdan nam bo'lib ulgurgan edi...

KO'Z YOSHLARGA G'ARQ QILGAN ASAR

"Yashamoq" kitobi — mashhur xitoy yozuvchisi Yu Xua (Yu Hua, 1960 y.) asari bo'lib, asl nomi To Live. Ushbu roman o'zining chuqur ma'nosi, hayot va o'lim, shukur hamda sabr haqida beradigan saboqlari bilan ko'plab o'quvchilar qalbida chuqur iz qoldirgan.

Muallif: Yu Xua – Xitoyda "yangi to'lqin" adabiyoti namoyandalaridan biri, xalqaro mukofotlar sohibi.

Janri: realistik badiiy roman, sotsiologik, psixologik tuyg'ular bilan boyitilgan.

Asosiy mavzu: oddiy dehqonning oilaviy fojialari va tarixiy voqealar – XX asr o'rtalarida Xitoyning siyosiy va ijtimoiy o'zgarishlari fonida inson hayotining haqiqiy qiymatini tan olishga undaydi.

Kitob asosan Fuguining oilasi atrofida kechadi: ota-onasi, rafiqasi, bolalari va nabiralari. Ularning hayoti ko'plab yo'qotishlar, sinovlar va og'riqlar bilan boyitilgan. Ammo Fuguining sabri va hayotga bo'lgan muhabbati o'quvchini chuqur ta'sir ostida qoldiradi.

Yozuvchining uslubi – sodda, ammo mazmunan kuchli. Har bir sahifa o'quvchini mulohaza qilishga chorlaydi.

"Yashamoq" – bu hayot mazmuni. O'limni oldindan bilish yoki kutish emas, balki unga qaramay yashash haqida hikoya so'zlaydi. Roman aytilmagan ko'z yoshlari, insonning ruhiy sinovlari va ularni yengishdagi mexanizmlarni chuqur ifodalaydi. O'quvchini minnatdor bo'lishga hamda hayotdagi qadriyatlarni anglashga undovchi ta'sirli kitob. Bosh qahramon Xu Fugui o'zining shaxsiy hayot tarixini aytadi.

Fugui qahramonining hayot bosqichlari:

Boyligidan bevafo, qimor va barlar zarariga tushgan hayot, ota-onasining halokati bilan tugagan boylik yo'qoladi.

Keyinchalik oila: rafiqasi Jiazhen bilan yashaydi, o'zini yana tiklashga harakat qiladi.

1940–1970 yillar tarixi: Qishloq hayotini, fuqarolar urushi, ma'muriy o'zgarishlar, madaniy inqilob kabi voqealarni boshidan kechiradi. Roman davomida, Fugui o'z nomini bergan bu xo'roz uni oxirgi tashkilotchiga aylantiradi, bu hayotning davomiyligini – yashash haqiqatini boshqalarga o'rgatadi. Fugui oilasining bir qator og'riq-



Xilola RAXMONOVA,
"Kutubxona-axborot faoliyati" ta'lim yo'nalishi (sirtqi) 4-bosqich talabasi

lariga sabr qilgan holda haqiqatda yashash san'atini o'rgatadi.

Boyligidan kambag'allikka tushib, hammaga mehribon insonga aylanadi. Haqiqiy boyluk – ruhiy o'sishda ekanini anglaydi. U o'zining hayotiy hikoyasini XX asrdagi Xitoy siyosati va ijtimoiy harakatlari fonida aks ettiradi. Zero, hayot barqaror emas, balki doimiy sinovlardan iborat.

Mazkur asar 1994-yilda Zhang Yimou tomonidan kinoga olingan. Film g'oyatda muvaffaqiyatli bo'ldi. Xitoyda roman chop etilganidan so'ng, zamonaviy adabiyot durdonasi sifatida e'tirof etilgan. O'qishga arziydigan ushbu asar tarix va shaxsiy hayot kesishgan joyda insoniylik, muhabbat va bardoshlilik kabi qadriyatlarni chuqur his etishga undaydi. Mustaqil fikrlash, sabr-toqat kabi xislatlar haqida chuqur mulohaza qilishga undaydi.



Nargiza ASADOVA,
Madaniyat va san'at sohasi
menejmenti magistranti,
O'zbekiston Yozuvchilar
uyushmasi a'zosi

Dilso'z HAZRATQULOVA,
"Madaniyatshunoslik" yo'nalishi
2-bosqich magistranti



Oqila ORTIQBOYEVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi bitiruvchisi,
Alisher Navoiy nomidagi davlat
stipendiyasi sohibasi

Qizil yelkan

Shovullaydi betinim ummon,
Shivirlasa tilaklarini,
Olislarga ko'z tikkan qizning,
Shamol o'ynar ko'ylaklarini.

Barmog'iga kim taqqan uzuk,
Ishonadi xayollariga,
Telba desin, parvo qilmaydi,
Dengizchining ayollariga.

Orzu bilan yashaydi, garchi,
Ishq yo'lida zahmat chekkanlar,
Ufq tomondan nogohon bir kun,
Suzib keldi, qizil yelkanlar.

Erka qizingiz

Bilim olib, maktab bitirib,
Maqsad ila shaharga keldim,
Erka edim ota-onamdan,
Yiroq ketib, qadrini bildim.

Talabalik davri boshlandi,
O'zgarmadim o'sha-o'shaman,
Bolaligim ortimda qolib,
Dovonlardan bir-bir oshaman.

Ketayapman orzular qila,
Shon-shuhratga havas qilmadim,
Onam bergan tarbiya ila,
Yomonlikni aslo bilmadim.

O'z uyimni sog'inayapman,
Ko'zda achchiq yoshlarim to'lib,
Dada hali erka qizingiz,
Ketar mashhur shoira bo'lib.

Biz vatanmiz

Hayot kuyin chalgan mitti yurakmiz,
Buyuk maqsad sari qilganmiz safar,
Yangi zamon uchun elga kerakmiz,
Birdam millat bo'lib quchamiz zafar.

Bilimli, zukko xalq, ona – o'zbekim,
Beruniy, Boburiy, Navoiyimsan!
Temurni qo'llagan Saroymulkbegim,
Samoga yo'l ochgan Ko'ragoniysan.

Munosib avlodmiz bobolarga mos,
G'alaba bitilgan bilimli boshga,
Anvoyi qalblimiz momolarga xos,
Saodat yarashar bizdayin yoshga.

Yangicha qarashlar qadrimiz bilan,
Shukrona xayollar qalb ehtiromi,
Millatni uyg'otib dardimiz bilan,
Dunyoga madh etib O'zbekistonni.

Hushyor bo'l, ey avlod, tarix bizniki,
Tosh kelsa hamki, jipslashdurimiz,
Ey do'st, Vatan – sen, Vatan – men,
Vatan kelajagin birga quramiz!



Nargiza SHODMONOVA,
"Madaniyat va san'at
muassasalarini tashkil etish
hamda boshqarish"
ta'lim yo'nalishi
4-bosqich talabasi

Munozara

Do'stim bilan allaqaysi kun,
Qiziq o'yin ustidan chiqdik.
Taxta uzra saft tortgan butun,
Terilgan shatranjga qiziqdik.

Har tomonda turardi bir shoh,
Hushyor edi har ikki raqib.
Vazirlar har nedan bo'lsa-da ogoh,
Pistirmadan dushman qilardi ta'qib.

Shohning ikki vaziri bo'lib,
Biri to'g'ri yuruvchi vazir.
Ikkinchisi xiylaga to'lib,
Egrilik yo'lin tanlagan farzin.

Bo'sh kelmasdi har ikki tomon,
Shiddat bilan davom etdi jang.
Yuqorida shoh turar omon,
Asir tushgan piyoda garang.

Har tomondan ot javlon urib,
Tor-mor qildi shoh-u gadoni.
Dushman-chi javoban mardona turib,
Bellashdi, qizidi urush maydoni.

O'yin yakun topdi bo'lib ziyoda,
Kerilgan shoh oxir mot bo'ldi.
Sharaf-la qilichin tutgan piyoda,
Kurashdi, intildi, qarang, shoh bo'ldi.



Bibixonimni taniysizmi?

Saroymulkxonim, Gavharshodbegim, Shodimulk, Xadichabegim, Xonzodabegim, Gulabadanbegim... Temuriylar saroyiga mansub malikalar haqida juda ko'p eshitganmiz, tarixiy manbalar, kitoblarda o'qiganmiz. Ammo hech bir manbada ularning qiyofalarini aniq uchratmaymiz. Faqatgina ularga berilgan ta'rif-u tavsiflardan xayolan qiyofalarini o'zimiz uchun gavdalandirganmiz. O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ekspozitsiyasini shakllantirish doirasida olib borilayotgan izlanishlar, o'rganishlar natijasida olimlar Sohibqiron Amir Temurning alohida hurmatiga sazovor bo'lgan, "Katta xonim" yoki "Bibixonim" unvoniga loyiq ko'rilgan temuriy malika Saroymulkxonim bilan bog'liq shov-shuvli yangilikka guvoh bo'lishdi.

Yurtimiz tarixini, jumladan, temuriy malikalar liboslari-ning o'zgacha go'zallik sirlarini o'rganib, hashamdorlik o'zbek davlatchiligida ham azaldan mavjud ekanini bilish mumkin. Shu bilan birga, Turon ayollari go'zallikdan tashqari, o'zlarining aql-u zakovati, siyosiy maydonda o'z so'ziga va harakat strategiyasiga ega bo'lgani bilan ajralib turadi. Buni ispaniyalik sayyoh Klavixoning "Samarqandga – Amir Temur saroyiga sayohat kundaligi" asari ham tasdiqlaydi: "Hamma o'z joyini egallagach, chodirlarning biridan Sohibqironning katta zavjasi Bibixonim chiqib keldi. U qizil matodan, tilla iplar bilan juda keng qilib tikilgan uzun ko'ylak kiyib chiqdi. Ko'ylak juda uzun ediki, orqasidan o'n beshga yaqin kanizaklar kuzatib yurishardi. Xonimning yuzi shunchalik oq narsa bilan bo'yalgan ediki, xuddi uzoqdan oq qog'oz bo'lib ko'rinardi. Bu oq upa yog'i quyoshdan saqlanish uchun surtilardi. Bibixonimning yuzi yupqa, nozik oq mato bilan berkitilgan, boshida qizil matodan bosh kiyimi bor, bosh kiyimdan yelkasigacha yupqa mato tushib turardi. Uzun bosh kiyim qimmatbaho dur-gavharlar bilan bezatilgandi. Malikaning sochlari juda qora, yelkasiga tushib turardi. Bu yer xotinlari sochlari qora rangda bo'lishini yoqtirishar va ba'zida qora rangga bo'yashardi. Bibixonimning yonida bir odam qo'lida soya-bon ko'tarib, uni quyoshdan to'sib kelardi. Soyabon oq ipak matodan, xuddi chodirga o'xshash dumaloq shaklda tikilgandi. Bibixonim sohibqiron o'tirgan maydonchaga, davraning to'riga chiqib, uning yonida o'tirdi".

Sohibqiron saroyida tug'ilgan shahzodalarni yoshligidanoq Saroymulkxonim tarbiyasiga topshirish an'ana bo'lgan. Uning tarbiyasini olgan Shohruh Mirzo, Xalil Sultonning san'at va adabiyotga, Mirzo Ulug'bekning ilmu fan va adabiyotga, musiqaqamga mehr qo'yishi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu an'ana keyinchalik temuriy shahzoda-

lar davrida ham saqlanib qoldi. Shohruh Mirzoning xotini Gavharshodbegim, Boburning onasi Qutlug' Nigorxonim, katta onasi Eson Davlatbegim, opasi Xonzodabegim, Jahongirning xotini Nurjahon, Shoh Jahonning qizi me'mor Jahonaro, Shoh Jahonning xotini Mumtoz Arjumand Bonu va keyin yashab ijod etgan shoirlar, shuningdek, oqila davlat arboblari yetishtirgan xalqning yuksak madaniyatli bo'lganligini payqash qiyin emas.

Shu kunga qadar Saroymulkxonimning surati borligini ko'pchilik bilmas edi. AQShning Sietl san'at muzeyida saqlanayotgan Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari qo'lyozmasiga ishlangan miniatyurada Saroymulkxonimning Samarqanddan Shohruh ibn Temur va Xalil Sulton ibn Mironshoh bilan Eron shimoli-g'arbidagi Temur qarorgohiga qilgan sayohati tasvirlanganligi ma'lum bo'ldi. San'atshunos Pristsilla Suchekning fikricha, Sharofiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarida keltirilgan Amir Temur tarjimai holiga oid qo'lyozmaga ishlangan suratda uning qiyofasi Temurning o'g'illaridan biri – yosh Shohruh bilan birga tasvirlangan. Bu tasvir Saroymulkxonim vafotidan 30 yil o'tib yaratilganligi taxmin qilinmoqda. Suratda Saroymulkxonimning otda o'tirgani, o'gay o'g'li Shohruh bilan solishtirilganda uning mavqei yuqori, izzat-hurmatda bo'lganini ko'rish mumkin. O'shanda Shohruh 10 yoshda bo'lgan. Tarixiy manbalarda nomlari keltirilgan ayollar bilan bog'liq voqealar ba'zan qo'lyozmalardagi suratlarda ham o'z aksini topgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari qo'lyozma nusxasida Saroymulkxonim va Xonzodabegim hayotidagi voqealar ham tasvirlangan.

Matndagi ma'lumotga ko'ra, suratda Saroymulkxonim lashkarlari Temur qarorgohidan ularni kutib olish uchun yuborilgan bir guruh otliqlar bilan uchrashgan paytini ko'rsatishi kerak bo'lsa-da, go'yoki ularning



sayohati tasvirlangandek taassurot uyg'otadi. Chap tarafdagi otliqlar Saroymulkxonim va uning xizmatkorlari, o'ng tarafdagi erkaklar esa o'sha paytda o'n yoshda bo'lgan Shohruhning xizmatkorlari bo'lishi mumkin. San'atshunos Pristsilla Suchekning yozishicha, bu voqea 1387-yilda, Saroymulkxonim Temur bilan Eron shimoli-g'arbida uchrashib, u yerda targ'ibot ishlarini olib borganida sodir bo'lgan. O'sha paytda Mironshoh 21 yoshda, Shohruh esa 10 yoshda bo'lsa-da, o'gay onasiga sayohatlarda hamrohlik qilgan. Xalil Sulton esa 3 yoshli bola bo'lgan.

Bu miniatyura Temuriy malikalarning qiyofalari bilan bog'liq xayoliy tasavvurlarning reallashishiga xizmat qiluvchi noyob manba, deyish mumkin.

Material cisc.uz ma'lumotlari asosida tayyorlandi

Asliddin RAYIMOV, "Sahna va ekran san'ati dramaturgiyasi" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

- Allo, opa ishdamisiz? Kelingizni dardi tutib qoldi, – hovliqib qo'ng'iroq qildi Tolibjon opasiga.
- Bugun ishda emasman. Tug'ruqxonaga boraveringlar, men ham tezda yetib boraman, – javob qildi Nafisa opa.
Tolibjon dod-voy qilib yotgan xotinini avaylab, mashinaga o'tkazdi va tug'ruqxonaga shoshildi. Masofa unchalik uzoq bo'lmagani uchun tezda yetib borishdi. Shifokorlar xotinini olib kirib ketishdi. Tolibjon tashqarida turganida opasi kelib qoldi.

YASMINA

- Olib kirib ketishdimi? – Nafisa opa ukasi bilan ko'rishgach savol berdi.
- Ha. Opa, hammasi yaxshi bo'larmikin? Shifokor kelingizga hali vaqti bor, degan ekan.
- Xavotir olma, men hozir ichkariga kirib ahvolini bilib chiqaman, – Nafisa opa ichkariga kirib ketdi.
Nafisa opa kichik hamshira lavozimida ishlaydi. Qarindoshlardan kimnidir oy, kuni yaqinlashsa, ish kuni bo'lsa-bo'lmasa bugungi kundek qo'lidan kelganча yordamlashardi. Bu holatlar eriga yoqmas, "Sendan boshqa shifokorlar ham borku", deya jerki qo'yardi. Biroq ukasidek yaqin qarindoshlar bundan mustasno.
Tolibjon bir soatcha kutib qoldi. Ammo, bu kutish u uchun shunchalar uzoq tuyildiki, ta'riflab bo'lmaydi. Tug'ruqxona tashqarisida uyoqdan-buyoqqa yurib, oyoqlari toliqdi.
Nafisa opa bir ahvolda chiqib keldi va ukasi tomonga jonsiz qadam tashlab yaqinlashdi.

- Xo'sh, opa nima bo'ldi? – Tolibjon xush xabarni eshitishga tayyorlandi.
- Tolibjon, farzanding vaqtidan avval tug'ildi. To'liq rivojlanmagani uchun uni saqlab qololmadik, – tomog'iga nimadir tiqilgan odamlardek og'ir gapirdi Nafisa opa.
- Nima? – Tolibjonning oyoqlaridagi madorsizlik butun tanasiga yoyildi. Yiqilishiga oz qoldi, lekin o'zini tutdi.
- Sabrli bo'l. Kelingizni ahvoli yaxshi, hali yoshsizlar. Farzandli bo'lishga ulgurasizlar, – dalda berish ohangida gapirdi Nafisa opa.
Tolibjon opasining gaplarini eshitmadi. Ixtiyorsiz holatda mashinaga borib o'tirdi. Er kishi yig'lamasligi kerak deyishadi. Lekin bu vaziyatda Tolibjon ko'z yoshini tiyib tutolmadi. Bor alomini mashinaning rulidan oldi. Bu uning ikkinchi farzandi. Bunisi ham hayotga keliboq, uni tark etdi...
Tolibjon murg'ak chaqaloqning kafanlangan tanasini ko'tarib, qabristonga kirib keldi. Dafn marosimi tugagach hamma ketdi, Tolibjondan tashqari. Uzoq vaqt



farzandining qabriga qarab qoldi. Shu vaqt go'rkov uning oldiga keldi.
- Siz jannati odam ekansiz uka, – dedi samimiylik bilan go'rkov. – Yoshligida vafot etgan farzandlar ota-onasini jannatga olib kirishadi, deb eshitgandim. Lekin bunchalik aza tutmang, bu Allohga xush kelmaydi. O'zingizni qo'lga oling.
Tolibjon javoban hech nima demadi. Go'rkov uni yana yolg'iz qoldirdi. Tolibjon biroz qabriga qarab turgach, sekin joyidan qo'zg'aldi.
Oradan ikki yil o'tdi. Tolibjon yana farzandli bo'lish arafasida. Ko'nglida qattiq qo'rquv bor. Bunisi ham yashab ketmasa-chi, degan xayollar uni tinch qo'ymasdi.
Yomg'ir tinmay yog'ayotgan kunda xotinining dardi boshlandi. Yana dod-voy, yana Tolibjonning shoshishlari, yana o'sha qo'rquvlar. Nafisa opa bu safar o'zi ularni tug'ruqxonada kutib oldi.
- Kelingizni sizga topshirdim opa, men bir joyga borib kelmasam bo'lmaydi, – dedi-yu Tolibjon mashinasiga o'tirib ketdi.

Tug'ruqxonadan uncha uzoq bo'lmagan masofada masjidga keldi. Avval tahoratxonagan kirib ixlos bilan tahorat olgach, masjid ichkarsiga kirdi. Namoz vaqti bo'lmagani uchun odamlar yo'q. Qibla tomonga yuzlanib, ikki rakat namoz o'qigach duo qila boshladi:

- Ey Alloh, meni kechir. Seni faqat og'ir ahvolda qolganimda eslayman. Lekin iltimos, bu safar farzandimni mendan tortib olma. Meni bunchalik azobda qoldirma. Sendan shuni o'tinib so'rayman, – deya qo'llarini yuziga tortdi. Shu vaqtda ko'zidan yosh chiqqanini sezmay qoldi.

Tug'ruqxonaga yetib kelganda uni opasi kutib oldi. Nafisa opa xushxabarni aytishga oshiqardi:

- Tolibjon, tabriklayman qiz farzandli bo'lding.
- Rostdanmi opa, aldamayapsizmi? – Tolibjon ishongisi kelmasdi.
- Ikkalasing ham ahvoli yaxshimi?
- Ikkalasi ham sog'lom, - yana ham xursandchilik bilan gapirdi, Nafisa opa.
- Opa, qizimni ko'rsam bo'ladimi?
- Umuman mumkin emas, lekin sen uchun ruxsat olib beraman, – dedi-yu Nafisa opa ichkariga kirib ketdi.

Tolibjon xotini va qizi yotgan palataning eshigi oldida qotib qoldi. Sekin ichkariga kirib keldi. Uxlab yotgan qizining qo'lini otalarcha mehr bilan ohista ushladi va o'zi bilmagan holda qizini hidlab ko'rdi.

- Yetkazganigga shukur, – deya pichirladi Tolibjon.
- Bizga ham ota-onalik baxti nasib etdi, – dedi xotini mehr bilan, bir eriga, bir farzandiga qarab. – Ismini nima qo'yamiz?
- Yasmina! – dedi xotiniga qarab Tolibjon. – Xonaga kirganimda Jannat iforini tuygandek bo'ldim. Jannat ifori doim kelib turishini xohlayman. Shu sabab, qizimizga jannatdagi gulning nomini beramiz...



O'zbek adabiyoti va san'ati – XALQARO FESTIVALDA



Qirg'izistonning Issiqko'l tumanida taniqli qirg'iz shoiri, siyosat arbobi Chini-bek Tursunbekov nomidagi V xalqaro she'riyat festivali bo'lib o'tdi.

Cho'lponota shaharchasida bo'lib o'tgan ushbu festivalda: O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston hamda Qirg'iziston san'atkorlari, shoir va yozuvchilari ishtirok etdilar. Qardosh xalqlar qatori yur-

Xurshid BEKNAZAROV,
"Cholg'u ijrochiligi"
kafedrasi dotsenti

timizdan men ham mazkur festivalga mehmon sifatida taklif etilganimdan mamnunman.

Tantanali tadbirda kamina dutor cholg'usida milliy kuylarimiz bilan, institutimiz magistranti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi Nargiza Asadova esa, o'zining she'rlari bilan ishtirok etdik. O'zbek milliy kuylari dutor navosi ostida yangraganda, barcha mehmonlar qarsaklar bilan olqishladilar. Qirg'iz birodarlari-miz qumuz sadosi bilan aytgan "Manas" dostoniga qardoshlari-miz birgalikda jo'r bo'ldilar.

Festival dasturida Chini-bek Tursunbekov nomidagi V xalqaro she'riyat tanlovi g'oliblarini taqdirlash, san'atkorlar bilan davra suhbatlar, milliy kuy-qo'shiqlar, aytishuv va o'lanlar o'rin oldi.

Bir so'z bilan aytganda, festival unutilmas taassurotlarga boy bo'ldi.

Ko'rgazma

HASAN ABDUNAZAROV

Ko'p qirrali Italiya

Toshkent Fotosuratlar uyida fotograf, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Irina Shurning 68 ta fotosuratlaridan tashkil topgan "Ko'p qirrali Italiya" nomli shaxsiy ko'rgazmasi ochildi. Sh.Irina ko'plab shaxsiy ko'rgazmalar namoyishida faol ishtirok etgan. U hujjatli va badiiy fotografiya chorrahasida ishlaydi. Jamoat ishlarida faol bo'lgan.



Ekspozitsiyadan o'rin olgan "Rim Kolizeyi" "Rim Tibr daryosi ustidagi ko'pri", "Milliy muzey avliyo farishta qasri", "Rim manzarasi", "Miloddan avvalgi VII asr", balandligi 4807 metr "Italiya – Fransiya dovoni" kabi fotosuratlar san'at muxlislarini befarq qoldirmaydi.

Fotosuratlarni kuzatgan tomoshabinni Italiya shaharlari, Alp tog'i, ko'llarning ulug'vorligi, mahobatli Rim, nafosatli Venetsiya, nafis Florensiya kabi fotosuratlar mulohazalarga chorlaydi.

Mitti hikoya

PAYG'AMBAR YOSH

Oyda bir sinfdosh qizlar yig'ilishib turamiz. Maktabni o'nikki nafar qiz bitirganmiz, biroq oilaviy-maishiy sabablarga ko'ra, teng yarmimiz diydorlashish baxtiga muyassarmiz. Uchrashuvga qadami yetmayotganlar "Sinfodoshlar" onlayn gruppasida faol. Bizning paytlarda maktabni 9-sinfda yakunlab, o'qishni texnikumlarda davom ettirish imkoniyati bo'lardi. 9-sinfdan ayro tushgan qizlarga negadir "eski sinfdoshlar", deb murojaat qilamiz.

Shukur, yoshimiz ulg'ayib qoldi. Oramizda quda-an-dali, nevarali qizlar ham bor. Yana bir bora shukur, ko'pgina qizlarimiz baxtidan tingan. Bitta zamonaviy ayol qandog bo'lish kerak?, degan savolga sinfdosh dugonalarimdan javob topaman. Ochiq aytaman, ularning orasida "bundayrog'i", "pachaqrog'i" o'zimman.

Afsuski, qizlar jamoasida bag'ri butunlar ikki-uchtagina qolibmiz. Ko'pchilikning yo otasi, yo onasi qazo qilgan. Oramizda g'irt yetimlar ham bor. Deyarli barchamizning ota-onamiz tengdosh, davrdosh. Hech birimizning ota-onamiz hali yetmish zinasiga yetmagan. Ellik yoshlardan elanish boshlandi, oltmish yoshlardan oshganda baraka yanayam uchdi. Hattoki, payg'ambar yoshiga yetmagan ota-onalar ancha bo'ldi.

Xudodan doim so'rayman: "Xudoyjonim, Mehribonim, payg'ambar yoshiga yetganimda, ota-onam yonimda tursin. Sendan to'qson-yuzni so'rayotganim yo'q. Bor-yo'g'i payg'ambar yoshiga yetganimda, ota-onam yonimda tursin, deb so'rayapman".

OZODA SHOBILOLOVA,
TEATRSHUNOS

SHANBA GULLARI



Institutda tahsil olayotgan 18 yashar qizalog'im Robiyaxonning bir chiroyli odati bor. Haftaning har shanba kuni menga gul ko'tarib keladi. Har hafta turfa gullar. Har shanba bir-birini takrorlamaydigan guldasta xonamni muattar iforga to'ldiradi.

Menga atalgan guldasta hafta mobaynida ruhimga yengillik, jismimga kuch-quvvat bag'ishlaydi.

Ming qilsayam onaman. Bolamni ayayman: "Robijon, bo'talog'im, gulga pul sarflamagin. Ko'ngling nimani tusasa olib yegin, ko'chada och yurmagin. O'zingdan sirib menga gul ko'tarib kelmagin, go'zalim. Sog'liging, borliging menga eng oliy mukofot".

Qizalog'imning javobi shu bo'ldi: "Melegim, shanbani intizorlik bilan kutaman. Sizga gul sotib olish menga qanchalik huzurligini bilsangiz edi. Melek, Xudo xohlasa, men sizni dunyoning eng go'zal joylariga olib boraman. Sizni keng dunyoda aylantiraman. Dunyoning eng go'zal, eng xushbo'y, eng qimmat gullarini oyog'ingiz ostiga poyandoz qilaman".

O'g'lim ham, qizim ham sensan, Robijon. Seni menga bergan Allohga shukur!

Yaponiya hikoyalar mamlakati

Toshkent Fotosuratlar uyida taniqli fotorassom O'zbekiston Badiiy ijodkorlar uyushmasi a'zosi Boris Nedosekovning "Yaponiya hikoyalar mamlakati" nomli shaxsiy ko'rgazmasi tashkil etildi.



Ko'rgazmada Tokioning kontrastlari, Kioto ibodatxonasining sokinligi, ko'cha va bog'larning manzaralarini ko'ramiz. Har bir surat tomoshabinni Yaponiya tarixi, hayotiga yaqinlashtiradi. Eksozitsiyada fotosuratlar "So'zsiz muloqot", "Dengiz qarag'aylar", "Sukunat", "Kiyik bola", "Tog' etagidagi millionlab hikoyalar", "Shahar ko'chalarida rahm-shavqat va qonun" va boshqa qator fotosuratlar tomoshabinni befarq qoldirmaydi. B.Nedosekov 1974-yilda tug'ilgan. U ta'limi bo'yicha televideniye muhandisi, 2005-yildan buyon fotografiya bilan jiddiy shug'ullanmoqda.

Muassis:

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Bosh muharrir

Baxtiyor YAKUBOV



Tahrir hay'ati:

Hamdam ISMOILOV,
Oybek DAVLATOV

Muharrir:

Dilnoza QURBONOVA

Sahifalovchi:

Abdug'ani SODIQOV

Tahririyat manzili: 100164 Toshkent shahri,
Mirzo Ulug'bek tumani,
Yalang'och mavzesi, 127 A uy.
Telefon: (71) 230-28-03.
(71) 230-28-13.

www.dsmi.uz;
nashriyot@dsmi.uz

O'lchami – A3, hajmi 4 bosma taboq.
Gazeta 31.07.2025-yilda topshirildi.

Gazeta Toshkent shahar Matbuot va axborot boshqarmasida № 02-00166 raqami bilan 2012-yil 19-dekabrda ro'yxatga olingan.

Gazeta elektron ko'rinishda havola etilmoqda